


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**70730301 – *Qurilish muhandisligi magistratura  
mutaxassisligining***

***MALAKA TALABI***

**Toshkent-2024**



**ISHLAB CHIQLIGAN:**

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti;

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil «01» 08 dagi 277 - sonli buyrug‘i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy talimning davlat talim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy talimning davlat talim standarti. Oliy talim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

**MUNDARIJA**

T/r		bet
1.	<b>Umumiy tavsifi.....</b>	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	6
2.	<b>Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....</b>	8
3.	<b>Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....</b>	10
4.	<b>Fanlar katalogining tuzilishi.....</b>	10
	Bibliografik ma’lumotlar.....	11
	Kelishuv varag‘i.....	12



## **1. Umumiy tavsifi**

70730301 – Qurilish muhandisligi mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. O'qish kredit – modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

### **1.1 Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi 70730301 – *Qurilish muhandisligi* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:**

mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul – oliy ta'lim muassasalarining professor–o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;

o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);

bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

magistratura mutaxassisliklaridan birini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan magistraturalar va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tasnifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:**

70730301 – *Qurilish muhandisligi* mutaxassisligi – Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash hamda professional ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, “O'zbekiston temir yo'llari” AJ va Qurilish vazirligi boshqarmalarida, qurilish va loyihalash tashkilotlarida xalqaro tajribalarga muvofiq transport bino va inshootlarini loyihalash va qurishga doir texnologik jarayondagi masalalarni yechish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy–tadqiqot institutlarida, ilmiy–ishlab chiqarish birlashmalari, bino va inshootlarni quruvchi va ulardan foydalanuvchi, har xil shakldagi mulk, sanoat va biznes tashkilotlar majmuini qamrab oladi.



*Mutaxassislik bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda magistrnlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.*

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tassarufidagi korxonalar va tashkilotlarda faoliyat;

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi tassarufidagi korxonalar va tashkilotlarda faoliyat;

“O'zbekgidroenergo” AJ tassarufidagi korxonalar va tashkilotlarda faoliyat;

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlarida, ilmiy tadqiqot markazlari, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari;

Oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

energiya samarali binolarni loyihalashning konstruktiv tizimlari va energiya samarali qurilish ob'ektlaridan foydalanish, ularni ta'mirlash va qayta qurish;

loyihaviy, loyiha–qidiruv va loyiha–smeta hujjatlarini ishlab chiqish;

mehnat faoliyatining barcha turlari bilan shug'ullanuvchi, turli mulkchilik shakldagi korxonalar;

davlat va mahalliy boshqaruv organlari;

“O'zbekiston temir yo'llari” AJ va Qurilish vazirligi boshqarmalarida;

“O'zbekiston temir yo'llari” AJ Kapital qurilish direksiyasida;

ilmiy, texnikaviy va texnologik masalalar bilan bog'liq akademik, ilmiy tadqiqot va muassasa tashkilotlari;

turli mulkchilik shaklidagi qurilish va qurilish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarini, xolding kompaniyalar, assotsiatsiyalar, konsernlar, uyushmalar, qo'shma korxonalar, xorijiy korxonalar, birjalar, banklar, konsalting va venchur korxonalar, turli korxonalar tashkilotlarining qurilish hamda bino va inshootlardan foydalanish faoliyati bilan bog'liq jarayonlar;

iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida bunyod etilayotgan qurilish ob'ektlari;

mutaxassislikka mos kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy ta'lim muassasalarining bo'limlari va o'quv jarayonlari;

iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalarida qurilish faoliyatida qo'llaniladigan kompyuter dasturiy ta'minoti tizimlari.

*Mutaxassislik bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda magistrnlarning kasbiy faoliyat ob'ektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.*

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

Ilmiy–tadqiqot va pedagogik faoliyati;

Ishlab chiqarish–texnologik faoliyati;

Tashkiliy–boshqaruv faoliyati;

Loyihalash–konstruktorlik–texnologik faoliyati;



Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy–pedagogik hamda professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

Konsalting xizmati faoliyati.

*Mutaxassislik bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda magistrarning kasbiy faoliyat turlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.*

#### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

70730301 – Qurilish muhandisligi mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

##### **Ilmiy–tadqiqot va pedagogik faoliyatida:**

ilmiy, amaliy–tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yaxshi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqida ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil etish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va va o'quv uslubiy majmualarni mukammal o'zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

##### **Ishlab chiqarish–texnologik faoliyatida:**

qurilish, ta'mirlash va rekonstruksiya ishlari amalga oshiriladigan hududlarni qurilishga tayyorlash;

qurilish obyektlarini loyihalash, qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish;

qurilishda texnik hujjatlarni (ishlarni bajarish grafiklari, yo'riqnomalar, rejalar, smetalar, material va jihozlarga buyurtmalar) tuzish;

namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;

ilmiy va amaliy faoliyatda sohaga mos tizimni rivojlantirish va ulardan foydalanish;



qurilish sohasidagi ishlarni amalga oshirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak;  
shaharsozlik va kasbiy etika kodeksiga rioya qilish.

**Tashkiliy–boshqaruv faoliyatida:**

loyihalarni boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf–xatarlarni tahlil qilish, loyiha komandasini boshqarish;

qurilish sohasiga oid zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

qurilish sohasida ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

xalqaro tajribalarga muvofiq transport bino va inshootlarning loyihalarini ishlab chiqish;

atrof–muhitni muhofaza qilish, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga rioya qilish talablaridan kelib chiqib ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirish;

bino va inshootlarni qurish, qayta qurish, rekonstruksiya qilish hamda ularda turli o'zgarishlarni amalga oshirish ishlari sifatini boshqarish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish va tatbiq qilish;

mutaxassisligiga tegishli ilmiy tadqiqot loyihalarini amalga oshirish jarayonlarini va ilmiy jamoani boshqarish;

e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish.

**Loyihalash–konstruktorlik–texnologik faoliyatida:**

bajarilayotgan tajriba–konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqishi va tadqiqot qilish; namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish;

bino va inshootlarni qurish, ta'mirlash va rekonstruksiya qilish bilan bog'liq investitsiya loyihalarini ishlab chiqish;

xalqaro tajribalarga muvofiq avtomobil va temir yo'llardagi transport inshootlarining loyihalarini ishlab chiqish;

ilmiy va amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish;

mehnat munosabatlariga yangi innovatsion loyihalar va texnologik jarayonlarni tadbiq qilinishini tashkil qilish.

**Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatda:**

oliy va o'rta maxsus, professional ta'limi tizimining ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini, jumladan o'quv ustaxonalarida o'tkazish;



o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasini egallash;  
zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan’anaviy o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha darslarni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv–metodik hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

bino va inshootlarni qurilish hamda ta‘mirlash sohasiga tegishli nazariy, amaliy, fundamental, innovatsion va tajribaviy ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirilishida ishtirok etish;

o‘qitilayotgan fan bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun o‘qitishning texnik vositalaridan foydalanish;

mustaqil ta‘lim va ijodiy qidiruv natijasida o‘qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va boshqa sohalarida o‘z–o‘zini muntazam takomillashtirib borish;

elektron (e-learning) va mobil (m-learning) o‘qitish uchun o‘quv–metodik majmualarni ishlab chiqish;

uzluksiz ta‘lim tizimining Davlat ta‘lim standartlari, Davlat talablari va boshqa o‘quv–me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqish.

#### **Konsalting xizmati faoliyatida:**

bino va inshootlarni texnik holatini baholash, ekspertiza qilish, energoaudit qilish va ekspert guruhlarini tarkibida ishtirokchi sifatida qatnashish;

mutaxassislik bo‘yicha konsalting xizmatlarini ko‘rsatish.

## **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo‘lishi, umummetodologik fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi; ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish;

milliy ma‘naviy va umuminsoniy qadriyatlar bo‘yicha o‘z nuqtai nazarini og‘zaki va yozma bayon etishi, milliy g‘oyaning nazariy asoslarni anglagan holda “Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot qurish” bosh g‘oyasining mohiyatini hamda uning asosiy g‘oyalar bilan mutanosibli va farqini bilish;

tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishi, insonning ma‘naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo‘lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatida hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda foydalana olish;

shaxsning inson, jamiyat, atrof muhitga bo‘lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me‘yorlarni kasbiy faoliyatida qo‘llay olish;

yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtira olishi, takomillashtirishi va o‘z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilish;

o‘zining individual bilimlariga tayangani holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilish;

o‘z faoliyatida me‘yoriy huquqiy hujjatlardan foydalana bilish;

fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og‘zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish;



ilmiy faoliyati natijalarini his qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy mas'uliyat shakllangan bo'lish;

kasbiy faoliyatda o'zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olish; xorijiy tillardan birini ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida egallagan bo'lish;

axborotni to'plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish usullarini egallash;

o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilish;

axborot, bilim, ma'lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo'lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olish;

bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashish;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;

patent olish uchun ish me'yoriy hujjatlar tayyorlay olish;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi borasida *ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

binolarni loyihalashda xonalarni mikroiklimini shakllanish xususiyatlarini va bu jarayondagi tashqi to'siq konstruksiyalarini o'rnini, ularning energiya samaradorligini oshirish yo'llarini bilish;

binolarni loyihalashni nazariy va amaliy masalalari qurilishda ishlatiladigan konstruksiyalar turlari, tuzilishi, ishlatilish ko'lamini, hisoblash asoslari, ilmiy texnik muammolarni yechishi, ularning rivojlanish tendensiyalarini oldindan ko'ra bilishi va ularga ilmiy yondosha olishi;

bino va inshootlarni ta'mirlash, qayta qurish va texnik qayta qurollantirishni aniqlab beruvchi funksional, iqtisodiy va ijtimoiy omillar, bino va inshootlarning holatini tekshirish hamda diagnostika qilish usullari va vositalarini bilishi;

quruq issiq iqlim sharoitida shaharsozlikni rivojlanish istiqbollari, aholi yashash joylarini bosh tarxini loyihalashni ijodiy masalalarini yecha olishi texnik iqtisodiy baholashning zamonaviy usullarini hamda kichik aholi yashash joylar seliteb zonalarini hisoblash va loyihalashni bilishi;

muayyan mutaxassislik bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni, uquv va ko'nikmalarni shakllantirishi;

magistratura mutaxassislik bo'yicha bilimlar bazasini yaratish, jamlash va ulardan foydalana olish ko'nikmalarini rivojlantirishi;

magistratura mutaxassisligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, kasb faoliyatining ko'zlangan natijalariga erishishda jarayonlarni modellashtirish va



tizimli yondashish borasidagi ilmiy bilimlar, amaliy o‘quv va ko‘nikmalarni ta’minlashi;

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ va Qurilish vazirligi boshqarmalari, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ Kapital qurilish direksiyasi korxonalari va ularning aloxida bo‘linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ va Qurilish vazirligi boshqarmalarida ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish tamoyillarini qo‘llay bilishi; transport bino va inshootlarining loyihalash va qurish bo‘yicha bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha xavfsiz matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish ko‘nikmalariga ega bo‘lish

### 3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Magistratura mutaxassisligi bo‘yicha quyidagi amaliyot o‘tkaziladi:

Ilmiy amaliyot (stajirovka) – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan olgan

### 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>	<b>Majburiy fanlar</b>				
1.01	ITM1104	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO‘M1104	Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi	120	4	1
1.03	QSM1104	Qurilish sohasidagi me‘yoriy hujjatlar tizimi	120	4	1
1.04	MTK1106	Maxsus temirbeton konstruksiyalari	180	6	1
1.05	YeIMQKLA 1110	Yevropa Ittifoqi me‘yorlariga muvofiq qurilish konstruksiyalarini loyihalash asoslari (Yevrokodlar)	300	10	1,2
1.06	BIKShSBO1 204	Bino va inshootlar konstruksiyalarni shikastlanish sabablari va buzilish oqibatlarini	120	4	2
1.07	MMK1206	Maxsus metall konstruksiyalari	180	6	2
1.08	QKXA1210	Qurilish konstruksiyalarini hisoblashni avtomatlashtirish	300	10	2,3
2.00		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>360</b>	<b>12</b>	<b>2,3</b>
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	360	12	2,3
		<b>Jami:</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
<b>3.00</b>		<b>Ilmiy faoliyat</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
3.01	ITIMDT3130	Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash	900	30	1,2,3,4
3.02	IPI3112	Ilmiy-pedagogik ish	360	12	1,2,3
3.03	IA(S)3418	Ilmiy amaliyot (stajirovka)	540	18	4
		<b>Jami:</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	
	Kvalifikatsiya	Muhandis – konstruktor. pedagog - tadqiqotchi			
<b>4.00</b>		<b>Attestatsiyalar</b>	<b>540</b>		
		<b>HAMMASI</b>	<b>4140</b>		



## **Bibliografik ma'lumotlar**

UDK: 002-651.1/7Guruh T 55

OKS 01.040.01

---



### **Tayanch so'zlar:**

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, mutaxassisligi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), uqib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, ilmiy boshqarish, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, ilmiy-tadqiqotlarni tashkil qilish, bino va inshootlar qurilishi, energiya samarali binolar, loyihalash ob'ekti; transport binolari qurilish materiallarini tadqiqot qilishning zamonaviy uslublari, transport binolari qurilish materiallarining innovatsion texnologiyalari, transport sohasidagi energiyasamarali binolarni loyihalash; informatsion ta'minot, seliteb zona, quruq issiq iqlim, ta'mirlash, qayta qurish, nazariya.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari hamda kadrlar iste’molchilari

ISHLAB CHIQLGAN:

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti



Rektor  B.Tulaganov  
2024 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_  
M.O. 

KELISHILGAN:



O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi

Direktor  M.Boltabayev  
202\_ yil “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_  
M.O. 



Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat  
texnika universiteti

Rektor  S. Turabdjanov  
202\_ yil “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_  
M.O. 


“O‘zog‘irsanoatloyiha” AJ

Direktor  B. Xazratqulov  
202\_ yil “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_  
M.O. 

Toshkent davlat transport universiteti

Rektor  O.Abduraxmonov  
202\_ yil “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_  
M.O. 

“O‘ZLITINEFTGAZ” AJ

Boshqaruv raisi birinchi o‘rinbosari  
L. Ismailov  
202\_ yil “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_  
M.O. 

“TREST 12” AJ

v.v.b bosh direktor  
R.Zakirov  
202\_ yil “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_  
M.O. 